

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
“IQTISOD VA MENEJMENT” FAKULTETI
«IQTISODIYOT» KAFEDRASI**



**«BOJXONA ISHI»
FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL
ETISH, NAZORAT QILISH VA BAHOLASH BO'YICHA**

USLUBIY KO'RSATMA

“MA’QULLANGAN”

Farg’ona Politehnika Instituti
Uslubiy kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan
“22” aprel 2011 yil

(Uslubiy kengash majlisining 4- sonli bayonnomasi)

“MA’QULLANGAN”

“Iqtisod va menejment” fakulteti uslubiy komissiyasida
muhokama qilingan va ma’qullangan
“24” yanvar 2011 yil

(Uslubiy komissiya majlisining 3- sonli bayonnomasi)

“TAVSIYA ETILGAN”

“Iqtisodiyot” kafedrasi majlisida
muhokama qilingan va tavsiya etilgan

(Kafedra majlisining 3- sonli bayonnomasi 18 yanvar 2011 yil)

Taqrizchilar: I.f.d. I.N.Ismanov

**Farg'ona davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri i.f.n.
A.O'rinov.**

Tuzuvchilar: i.f.n., dots.Kurpayanidi K.I., ass.Ilyosov A.

© i.f.n., dots.Kurpayanidi K.I., ass.Ilyosov A. «Bojxona ishi» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha uslubiy qo'llanma. – F.: FarPI, 2011. 52 bet.

KIRISH

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda.

Ushbu vazifalarning keng tahlili hamda ularni yanada chuqurroq hal etish borasida Prezidentimiz I.Karimov shu yilning 29 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida ma'ruza qildi. Unda mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizatsiya qilishning to'g'ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar qilinishi tufayli global inqirozning oqibatlari va tahdidlariga nafaqat bardosh berishga, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning barqaror sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi qayd etildi.

2008 yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar ekanmiz har bir mamlakat tomonidan tashqi savdo aylanmasini oshirish masalalariga bo'lgan e'tiborni olib kirilayotgan tovarlar tarkibi va sifatiga bo'lgan talablarni xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlashni taqozo etadi.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"¹ va "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir"² nomli asarlarida keltirilgan materiallar, qoidalar va xuloslarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondoshishlarini ta'minlash fanni o'rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, Birlashgan millatlar tashkilotiga, Butunjahon bojxona tashkilotiga (BJBT) va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi O'zbekiston uchun o'zining mustaqil ichki va tashqi siyosatini aniqlash va amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazishning o'ziga xos yo'llarini tanlash, xalq turmush farovonligini oshirishning keng yo'llarini ochib berdi. Mustaqillikka erishish vaqtidan boshlab mamlakatimizning suverenitetini ta'minlash, yangilanish va ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ichki va tashqi siyosat strategiyasini ishlab chiqish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

² Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida tashqi savdo siyosati vositalaridan foydalanishni yanada takomillashtirishni, ya'ni xalqaro savdoni tartibga solishda notarif usullaridan tarif usullariga o'tishni taqozo etayapti. Bu esa tarif usullarini bevosita amaliyotda qo'llovchi bojxona ishini, uning asosiy tashkil etuvchilarini, asosiy tamoyillari va qoidalarini o'rganishga bo'lgan e'tiborni yana ham oshirmoqda. «Bojxona ishi» fanini o'qitishdan maqsad talabalarda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojxona ishini tutgan o'rni, bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazishni, ulardan bojxona qonunchiligida belgilangan bojxona to'lovlari undirilishini ob'ektivligini ta'minlashni, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurashni, bojxona ishi bo'yicha xalqaro xamkorlikni, bojxona xizmati uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni, mamlakat iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilishdagi ahamiyati to'g'risida, nazariy va amaliy bilimlar xosil qilishdan iborat. Fanni o'qitilishining asosiy vazifalari jaxon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri xamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bulgan omilarni urganish, xalqaro xamjamiyat bilan o'zaro savdo iqtisodiy aloqalarini kengayishi sharoitida respublikamiz bojxona organlarini faoliyatini jaxon amaliyotida qabul qilingan me'yorlar asosida takomillashtirish zarurligi to'g'risida talabalarda ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqish uyg'otishdir.

Bu fanni talabalar tomonidan to'liq o'zlashtirilishi, «Bojxona ishi» yo'nalishining namunaviy o'quv rejasida belgilangan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Jaxon iqtisodiyoti», «Makroiqtisodiyot», «Mikroiqtisodiyot», «Marketing», «Menejment» kabi fanlar bilan bog'liq. Ushbu fanni o'qitishda ta'limning ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim kabi shakllaridan foydalaniladi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalarning interaktiv, aqliy xujum, taqdimot usullaridan foydalaniladi. Ushbu usullardan foydalanishda ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli «Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnoma, 2009 yil 7 avgustdagi 276-sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizom»ga ko'ra hamda FarPI uslubiy kengashining 2011 yil 22 apreldagi 4-bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Bojxona ishi» fani bo'yicha Ishchi o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

«Bojxona ishi» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma bakalavriat bosqichi 340000–«Biznes va boshqaruv» ta'lim sohasining 5340200 «Menejment» va 5340100 «Iqtisodiyot» oliy ta'lim yo'nalishlari 4-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarining mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorati

asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi. Xususan, bakalavriat bosqichi 340000–“Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasining 5340200 “Menejment” va 5340100 “Iqtisodiyot” yo'nalishlari uchun «Bojxona ishi» fani bo'yicha mustaqil ishlarning umumiy hajmi o'quv rejada “Menejment” ta'lim yo'nalishi uchun 36 soat va “Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi uchun 30 soat miqdorida belgilangan.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

1. Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

«Bojxona ishi» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyot nazariyasini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishini bajarishdan **asosiy maqsad** – «Iqtisodiyot» kafedrasini professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa institutda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda–semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarining topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

“Bojxona ishi” fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha ilmiy izlanish ishi tayyorlash;
- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Bojxona organlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha respublikada olib borilayotgan chora-tadbirlarni mustaqil o'rganish va konspektlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni konspektlashtirish;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- talabalarining ilmiy jamiyatlari va to'garaklarida ishtirok etish;
- ko'rgazmali vositalar, prezentatsiyalar tayyorlash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;

- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza matnlarini tayyorlash;
- “talaba-o'qituvchi-kutubxona” kunida fan bo'yicha yangi o'quv adabiyotlari sharhini o'qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar yotoqxonasidagi ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;
- fakul'tativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;
- Respublika miqyosida o'tkaziladigan fan olimpiadalari va turli iqtidorli talabalar ko'rik tanlovlarida (“Kelajak ovozi”, “Iqtidorli talabalar stipendiyalari” va b.);
- kafedralar va fakul'tetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta'lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo'ysundirilganki, butun o'quv jarayoni to'raligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o'zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan bojxona ishi fani bo'yicha mustaqil ishlar ko'proq referatlar qo'rinishida bo'lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h. k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan amaliy mashg'ulotdagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga

olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarini himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, bojxona ishini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Ko'rgazmali vositalar, prezentatsiyalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidolari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalari ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferentsiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bojxona organlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish fani bo'yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – fan o'qitilayotgan barcha o'quv guruhlarida konferentsiyalarni o'tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma’ruzalarini fakul’tet va fakul’tetlararo konferentsiyaga taqdim etish va o’tkazish;

3-bosqich – fakul’tetlararo konferentsiyada tanlab olingan eng yaxshi ma’ruzalarni umuminstitut ilmiy-nazariy konferentsiyasiga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo’lgan konferentsiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma’ruza va chiqishlarini guruhlarining qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

2.Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo’yicha yo’riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1.Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko’rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2.Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya’ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta’minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e’tibor qaratish:

- talabaning o’qish bosqichi;
- muayyan fanning o’ziga xos xususiyati, o’zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalaribilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o’tish bilan shakl va hajm jihatidan o’zgarib borishiga;
- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o’zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

3.Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo’lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;
- zarur ma’lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an’anaviy o’quv va ilmiy adabiyotlar hamda me’yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o’quv va ilmiy adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet, jumladan “ziyonet.uz” axborot tarmog’idan maqsadli foydalanish;
- ma’lumotlar bazasini tahlil etish;

- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

4.Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi.

- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;

- tegishli adabiyotlar axborot manbalarini tavsiya qiladi;

talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

**5. «Bojxona ishi» fanini o'qitish uchun 5340200 Menejment oliy ta'lim
yo'nalishiga ajratilgan soatlarning o'quv turlari va mavzulari bo'yicha
taqsimlanishi:**

№	Mavzular nomi	Soatlar		
		Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar
1.	Bojxona ishini shakllanish tarixi va global inqiroz davrida bojxona xizmatining tutgan o'rni	4	2	2
2.	O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatini shakllanish bosqichlari va inqiroz davrida uni amal qilish xususiyatlari	4	2	2
3.	Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari	4	2	2
4.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatini takomillashtirish	4	2	2
5.	Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari	8	4	4
6.	Bojxona nazoratini amalga oshirish tartiblari va shartlari	4	2	2
7.	Bojxona rasmiylashtiruv va deklaratsiyalash	4	2	2
8.	Bojxona boji va tarif usullari	4	2	2
9.	Byudjetga bojxona to'lovlari	4	2	2
10.	Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari	4	2	2
11.	Bojxona tizimida aktsizlar o'rni	4	2	2
12.	Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash xususiyatlari	4	2	2
13.	Bojxona statistikasi – bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi	8	2	2
14.	Bojxona organlarining huquqni himoya qilish sohasida faoliyati. Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik	4	2	2
15.	Bojxona organlarining kontrabanda va bojxona konunlarini buzganlik tugrisidagi ishlarni yuritish	4	2	2
16.	Bojxona ishida jazolar berish to'g'risidagi qarorlarni ijro etish	4	2	2
17.	O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo balansi tahlili.	4	2	2
Jami		72	36	36

**6. «Bojxona ishi» fanini o'qitish uchun 5340100 Iqtisodiyot ta'lim
yo'nalishiga ajratilgan soatlarning o'quv turlari va mavzulari bo'yicha
taqsimlanishi**

№	Mavzular nomi	Soatlar		
		Jami	Ma'ruza	Amaliyot va seminar mashg'ulotlar
1	Bojxona ishini shakllanish tarixi va global inqiroz davrida bojxona xizmatining tutgan o'rni	4	2	2
2	O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatini shakllanish bosqichlari va inqiroz davrida uni amal qilish xususiyatlari	4	2	2
3	Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari	2	-	2
4	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatini takomillashtirish	4	2	2
5	Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari (1-qism)	2	-	2
6	Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari (2-qism)	4	2	2
7	Bojxona nazoratini amalga oshirish tartiblari va shartlari	4	2	2
8	Bojxona rasmiylashtiruvi va deklaratsiyalash	4	2	2
9	Bojxona boji va tarif usullari	2	-	2
10	Byudjetga bojxona to'lovlari.	4	2	2
11	Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari	4	2	2
	Bojxona tizimida egri soliqlarni tutgan o'rni aktsizlar o'rni	2	2	-
12	Bojxona tizimida aktsizlar o'rni	2	-	2
13	Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash xususiyatlari	2	-	2
14	Bojxona statistikasi – bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi	2	-	2
15	Bojxona organlarining huquqni himoya qilish sohasida faoliyati. Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik	4	2	2
Jami		50	20	30

7. Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi

Mustaqil ishlarining bajarilishi “Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi” talablari asosida nazorat qilinadi va baholanadi. Mustaqil ishlarini baholash mezonlari talabalarga o’quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

“Bojxona ishi” fani bo’yicha talabalar mustaqil ishlarini joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali nazorat qilish hamda baholash tavsiya etiladi:

T.r	Mustaqil ish shakllari	Topshirish muddati	Baholash mezonlari
1. Joriy nazoratda baholanadigan ishlar			
1.	Fan bo’yicha ilmiy izlanishlarni rasmiylashtirish(ilmiy maqola, taqdimot, esse)	Semestr 6/7 o’quv xaftasigacha	O’quv ishchi dasturga muvofiq
2.	Alohida mavzularni mustaqil o’rganish	Semestr 11/13- o’quv xaftasigacha	O’quv ishchi dasturga muvofiq
2. Oraliq nazoratda baholanadigan ishlar			
1.	O’zbekiston Resublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda bojxona ishiga doir me’yoriy hujjatlarni chuqur tahlil qilish	Semestr 6/10- o’quv xaftasigacha	O’quv ishchi dasturga muvofiq
2.	Testlar yechish	Semestr 11/18- o’quv xaftasigacha	O’quv ishchi dasturga muvofiq
3. Yakuniy nazoratda baholanadigan ishlar			
1.	Yozma ish	Dekanat tomonidan belgilangan kun va sanasida.	O’quv ishchi dasturga muvofiq

7.1. Mustaqil o’rganish uchun topshiriq

Mustaqil ishni berilishini maqsadi, fanni o’rganish davrida olgan nazariy bilmini, ilmiy-tadqiqot ishlariga tadbiq qila olishi, mustaqil fikrlay olishi, ularni amaliyotga to’g’ri qo’llay bilishi, shu bilan birgalikda maxsus va ilmiy ma’lumotlarni yeg’ish va tahlil qilishga o’rgatish.

Bundan tashqari ilmiy-tadqiqot ishlari talabani bu fanni o'rganishdagi ko'rsatkichini , hamda ko'rilayotgan mavzu bo'yicha bilimni qanchalik chuqurligini aniqlashga imkon beradi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini yozish qoidalari referatlarga , nazorat ishlariga , kurs ishlariga qo'yilgan talablardan iboratdir.

Agar talaba:

- 1) O'rganilayotgan fan bo'yicha Respublika miqyosida ilmiy – amaliy konferensiyalar va nashrlarda ikkita va undan ortiq maqola yoki tezislar chop etgan bo'lsa;
- 2) Xalqaro ilmiy tadqiqot konferensiyasida ishtirok etib, konferensiyaning ilmiy maqolalar to'plamida bitta va undan ortiq maqola yoki tezislar chop etgan bo'lsa;
- 3) Ilmiy maqolalarni yoki tezislarni ilmiy jurnallarda (axborotnomalarda, internet resurslarida va boshqa) chop etgan bo'lsa;
- 4) “Kelajak ovozi” regional tanlovida o'zining proekti bilan qatnasa.

Talaba ishlar bo'yicha barcha topshiriqlarni topshirishdan ozod qilinadi va mustaqil talim bo'yicha yuqori ball olishi mumkin.

Agar talaba 4-punk bajarilgan bo'lsa, joriy nazorat bo'yicha yuqori ball oladi.

7.2. “Bojxona ishi” fani bo'yicha ishlab chiqilgan quyidagi reyting baholash tizimi orqali ifodalanadi:

Bojxona ishi fani bo'yicha “Menejment” ta'lim yo'nalishiga jami uchta joriy baholash, ikkita oraliq baholash va bitta yakuniy baholash o'tkaziladi.

Birinchi joriy baholash Bojxona rejimlarigacha bo'lgan 6 ta mavzuni qamrab olib ular quyidagilardan iborat:

1. Bojxona ishini shakllanish tarixi va global inqiroz davrida bojxona xizmatining tutgan o'rni;
2. Bojxona xizmati;
3. Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari;
4. O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosati;
5. Bojxona rejimlari (1-qism);
6. Bojxona rejimlari (2-qism).

Birinchi joriy baholash talabalarni seminar va amaliy mashg'ulot savol-javoblaridagi faolligi hamda so'ngi yozma ishni natijasiga qarab o'tkaziladi.

Ikkinchi joriy baholash 7-12 gacha bo'lgan mavzularni qamrab olib ular quyidagilardan iborat:

1. Bojxona nazorati;
2. Bojxona rasmiylashtiruv va deklaratsiyalash;
3. Bojxona boji va tarif usullari;
4. Bojxona to'lovlari;

5. Tovarlarning bojxona qiymati;
6. Bojxona tizimida aktsizlar o'rni.

Ikkinchi joriy baholash talabalarni dars va darsdan tashqari vaqtlardagi fanga bo'lgan qiziqishi va 10 ta savolli testni natijasiga qarab o'tkaziladi.

Uchinchi joriy baholash 13-18 gacha bo'lgan mavzularni qamrab olib ular quyidagilardan iborat:

1. Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash xususiyatlari;
2. Bojxona statistikasi – bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi (1-qism);
3. Bojxona statistikasi – bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi (2-qism);
4. Bojxona organlarining huquqni himoya qilish sohasida faoliyati. Bojxona xaqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik;
5. Bojxona organlarining kontrabanda va bojxona konunlarini buzganlik tugrisidagi ishlarni yuritish;
6. Bojxona ishida jazolar berish to'g'risidagi qarorlarni ijro etish.

Uchinchi joriy baholash talabalarni darsdagi ishtiroki, uyga berilgan vazifalarni o'z vaqtida tayyorlab borishi hamda 10 savolli test natijalariga qarab o'tkaziladi.

1-oraliq baholash 15 ta savoldan iborat test va mustaqil ish natijalariga qarab baholanadi. Test savollari quyidagi mavzularni o'z tarkibiga oladi:

1. Bojxona ishini shakllanish tarixi va global inqiroz davrida bojxona xizmatining tutgan o'rni;
2. O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatini shakllanish bosqichlari va inqiroz davrida uni amal qilish xususiyatlari;
3. Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari;
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatini takomillashtirish;
5. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari (1-qism);
6. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari (2-qism);
7. Bojxona nazoratini amalga oshirish tartiblari va shartlari;
8. Bojxona rasmiylashtiruvi va deklaratsiyalash;
9. Bojxona boji va tarif usullari;

Test natijalari 15 balli reyting asosida baholansa, mustaqil ish 5 balli reytingda baholanadi. Talabadan 1-oraliq baholashni o'zida jami maksimal 20 ball yig'ish talab etiladi. Mustaqil ish bojxona ishiga oid biror amaliyotda sodir bo'lgan vaziyatni o'rganib kelgan talabani o'rganganlik darajasiga asosan baholanadi.

2-oraliq baholash jami 20 balli reyting asosida baholanib, undan maksimal tartibda 15 ball og'zaki sinovga va 5 ball mustaqil ishga ajratilgan.

Og'zaki sinovda talaba o'qituvchi tomonidan tuzib chiqilgan va 3 ta savoldan iborat bo'lgan variantlardan birini tanlab belgilangan savollarga javob beradi. Har bir savolga berilgan to'g'ri javobga maksimal 5 balli reytingda baho qo'yiladi. **Variantlar o'z ichiga quyidagi mavzularni qamrab oladi:**

1. Byudjetga bojxona to'lovlari;
2. Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari;
3. Bojxona tizimida aktsizlar o'rni;
4. Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash xususiyatlari;
5. Bojxona statistikasi – bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi (1-qism);
6. Bojxona statistikasi – bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi (2-qism);
7. Bojxona organlarining huquqni himoya qilish sohasida faoliyati. Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik;
8. Bojxona organlarining kontrabanda va bojxona konunlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish;
9. Bojxona ishida jazolar berish to'g'risidagi qarorlarni ijro etish.

Mustaqil ish bojxona ishiga oid biror amaliyotda sodir bo'lgan vaziyatni o'rganib kelgan talabani o'rganganlik darajasiga asosan baholanadi.

Yakuniy baholash yozma ish tartibida o'tkaziladi. U maksimal 30 balli reytingda baholanadi. Yozma ishda talabalardan 12 varoqli daftarga variantlar bo'yicha belgilab berilgan barcha mavzularni qamrab olgan 3 ta savolga tayanch iboralarni e'tiborga olgan holda javob yozish talab etiladi. Talabalarga yakuniy baholashni topshirishlari uchun 80 minut vaqt beriladi.

8. Talabalar bilimni baholash turlarini o'tkazish jadvali

Fanning nomi – Bojxona ishi

Fan uchun: 7-semestrda ajratilgan soat

Ta'lim yo'nalishi – «Menejment»

Jami: 108 soat, jumladan:

Maksimal ball – 100

ma'ruza – 36 soat

Fan bo'yicha o'tish bali – 56

amaliy – 36 soat

Saralash bali – 55

mustaqil ta'lim – 36 soat

SHundan:

Har bir JBning saralash bali – 6

JBning umumiy saralash bali – 23

Har bir OBning saralash bali – 6

OBning umumiy saralash bali – 17

YaBning saralash bali – 17

2- jadval.

Baholash turlari	Ballar ulushi		Mashg'ulotlar bo'yicha ballar ulushi	HAFTALAR																	
				1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
JB	M	40	Amaliy	Maksimal											10						10
				Saralash					10												6
									6						6						
	S	23	Mustaqil ta'lim	Maksimal														5		5	
				Saralash														3		3	
Ob	M	30	Ma'ruza	Maksimal																	
				Saralash								10									10
												6									6
	S	17	Mustaqil ta'lim	Maksimal														5		5	
				Saralash														3		3	
Ya	M	30		Maksimal																	30
	S	17		Saralash																	17

Bojxona ishi fani bo'yicha "Iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishiga jami uchta joriy baholash, bitta oraliq baholash va bitta yakuniy baholash o'tkaziladi.

Birinchi joriy baholash dastlabki 5 ta mavzuni qamrab olib ular quyidagilardan iborat:

1. Bojxona ishini shakllanish tarixi va global inqiroz davrida bojxona xizmatining tutgan o'rni;

2. O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatini shakllanish bosqichlari va inqiroz davrida uni amal qilish xususiyatlari;
3. Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari;
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatini takomillashtirish;
5. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari (1-qism)

Birinchi joriy baholash talabalarni seminar va amaliy mashg'ulot savol-javoblaridagi faolligi hamda so'ngi yozma ishni natijasiga qarab o'tkaziladi.

Ikkinchi joriy baholash 6-10 gacha bo'lgan mavzularni qamrab olib ular quyidagilardan iborat:

1. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari(2-qism);
2. Bojxona nazoratini amalga oshirish tartiblari va shartlari;
3. Bojxona rasmiylashtiruv va deklaratsiyalash;
4. Bojxona boji va tarif usullari;
5. Byudjetga bojxona to'lovlari.

Ikkinchi joriy baholash talabalarni dars va darsdan tashqari vaqtlardagi fanga bo'lgan qiziqishi va 10 ta savolli testni natijasiga qarab o'tkaziladi.

Uchinchi joriy baholash 11-15 gacha bo'lgan mavzularni qamrab olib ular quyidagilardan iborat:

1. Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari;
2. Bojxona tizimida aktsizlar o'rni;
3. Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash xususiyatlari;
4. Bojxona statistikasi – bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi;
5. Bojxona organlarining huquqni himoya qilish sohasida faoliyati. Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Uchinchi joriy baholash talabalarni darsdagi ishtiroki, uyga berilgan vazifalarni o'z vaqtida tayyorlab borishi hamda 10 ta savolli test natijalariga qarab o'tkaziladi.

Oraliq baholash 60 ta savoldan iborat test va mustaqil ish natijalariga qarab baholanadi. Test savollari quyidagi mavzularni o'z tarkibiga oladi:

1. Bojxona ishini shakllanish tarixi va global inqiroz davrida bojxona xizmatining tutgan o'rni;
2. O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatini shakllanish bosqichlari va inqiroz davrida uni amal qilish xususiyatlari;
3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatini takomillashtirish;
4. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari;
5. Bojxona nazoratini amalga oshirish tartiblari va shartlari.
6. Bojxona rasmiylashtiruv va deklaratsiyalash;
7. Byudjetga bojxona to'lovlari;
8. Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari;
9. Bojxona tizimida egri soliqlarni tutgan o'rni aktsizlar o'rni;

10.Bojxona organlarining huquqni himoya qilish sohasida faoliyati. Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Test natijalari 30 balli reyting asosida baholansa, mustaqil ish 20 balli reytingda baholanadi hamda 10 bali joriy baholash uchun 10 bali oraliq baholash uchun qo'yiladi. Mustaqil ish bojxona ishiga oid biror amaliyotda sodir bo'lgan vaziyatni o'rganib kelgan talabani o'rganganlik darajasiga asosan baholanadi.

Yakuniy baholash yozma ish tartibida o'tkaziladi. U maksimal 30 balli reytingda baholanadi. Yozma ishda talabalardan 12 varoqli daftarga variantlar bo'yicha belgilab berilgan barcha mavzularni qamrab olgan 3 ta savolga tayanch iboralarni e'tiborga olgan holda javob yozish talab etiladi. Talabalarga yakuniy baholashni topshirishlari uchun 80 minut vaqt beriladi.

Quyida mustaqil ish namunasi keltirilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Farg'ona Politehnika Instituti

"IQTISOD VA MENEJMENT" FAKULTETI

"IQTISODIYOT" KAFEDRASI

"BOJXONA ISHI" FANIDAN

**"GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI BOJXONA SIYOSATI
TAHLILI" MAVZUSIDAGI**

ILMIY IZLANISH

ISHI

(NAMUNA)

Bajardi:

XXX- XX guruh talabasi.

f.i.sh

Ilmiy rahbar:

dots. Kurpayanidi K

FARG'ONA-2011

GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING BOJXONA SIYOSATI TAHLILI

REJA

Kirish

- 1. Germaniya Federativ Respublikasi haqida ma'lumot**
- 2. Germaniya iqtisodiyoti**
- 3. Germaniyaning hukumati**
- 4. Germaniya bojxonasi qonunchiligi**
- 5. Germaniya va Xalqaro tashkilotlar**
- 6. O'zbekiston Respublikasi va Germaniyaning tashqi iqtisodiy aloqalari**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI HAQIDA MA'LUMOT

Germaniya Federativ Respublikasi G'arbiy Yevropada joylashgan. U [Daniya](#), [Polsha](#), [Chehiya](#), [Avstriya](#), [Shveytsariya](#), [Fransiya](#), [Luksemburg](#), [Belgiya](#) va [Niderlandiya](#) kabi mamlakatlar bilan chegaradoshdir. Shimolda Shimoliy va Sharqiy dengiz orqali tabiiy chegara mavjud. Mamlakatning poytaxti va mamlakat boshqaruvi Berlin shahridadir. Ba'zi bir federal vazirliklar eski poytaxt Bonnda joylashgan



Bayrog'i



Gerbi



Umumiy maydoni	357021 km ² , (63-o'rin)
Aholisi	81.757.600 kishi (14-o'rin)
Zichlik	229 kishi/kv.km. (36 o'rin)
Shahar aholisi	73.5%
Chegaradosh davlatlar	Daniya , Polsha , Chehiya , Avstriya , Shveytsariya , Fransiya , Luksemburg , Belgiya , Niderlandiya
Rasmiy tili	Nemis tili
Poytaxt	Berlin
Yirik shaharlar	Berlin, Gamburg, Myunxen, Keln, Frankfurt na Mayne, Shtutgart
Hukumat	parlamentlik Respublika
Boshqaruv shakli	Federativ Parlament Respublika
Federal Prezident	Xorst Kyoler
Federal kansler	Angela Merkel
Pul birligi	EVRO (2172,21 so'm)
Internet domeni	.de
Telefon prefiksi	+49

Berlin, Germaniya poytaxti




Allianz Arena futbol stadioni



Germaniya davlati 16 ta mustaqil yerlarga bo'lingan:

1. Baden-Vyurtemberg
2. Bavariya erkin davlati
3. Berlin
4. Brandenburg
5. Bremen
6. Gamburg
7. Gessen
8. Meklenburg
9. Quyi Saksoniya
10. Shimoliy Reyn-Vestfaliya
11. Reynland-Pfals
12. Saar
13. Saksoniya erkin davlati
14. Saksoniya-Anxalt
15. Shlezvig-golshteyn
16. Tyuringiya erkin davlati



Germaniya iqtisodiyoti

Valyuta	yevro
YaIM (2010)	2.951 trln \$, (35900\$ per)
YaIM (2009)	2,585 trln \$, (34700\$ per)
YaIM ning o'sish sur'atlari: 2010 yil 2009 yil	3.3% -4.7%
Inflyatsiya	1%(2010), 0.3%(2009)
Ishsizlik darajasi:	7.1% (2010)
Asosiy sanoat sohalari:	avtomobilsozlik, mehanik, elektrik, aniq mashinasozlik, kimyoviy, ekologik texnologiyalar, optika, meditsina texnologiyalari, biotexnologiya va geninjeneriyasi, nanotexnologiyalar, aerokosmik logistika
Tabiiy resurslar	temir, toshko'mir, past navli ko'mir, ishqor, tabiiy gaz
Tashqi savdo	
Eksport(2010)	1,146 trl. EUR
Ekport tovarlari	mashina uskunalari, kimyoviy mahsulotlar, avtomobillar, metallar, oziq ovqat, to'qimachilik mahsulotlari, hk.
Asosiy hamkorlar	Fransiya – 10.2%, AQSh – 6.7%, Buyuk Britaniya – 6.6%, Niderlandiya – 6.7 %, Italiya – 6.3 %, Avstriya – 6%, Xitoy-4.5%
Import(2010)	1,020 trl EUR
Import tovarlari	mashina uskunalar, neft mahsulotlari, sanoat tovarlari, elektrotexnika, to'qimachilik mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, metallar, avtomobillar, kiyim-kechak, hk.
Asosiy hamkorlar	Niderlandiya – 8.5 %, Fransiya – 8.2%, Belgiya – 7.5%, Xitoy – 7.9%, Italiya – 5.9 %, Buyuk Britaniya – 4.9%, Avstriya – 4.1%, Rossiya – 4.2%, AQSh –

	5.9%
--	------

Germaniya hukumati

Davlat rahbari – prezident

Ijro etuvchi hokimiyat rahbari – kansler

Parlament – 2 palatali

Federal Konstitutsion Sud

Asosiy qonun: Konstitutsiya (23 may, 1949)



Christian Wulff. Germaniya prezidenti



Anjela Merkel, Hukumat boshlig'i



Ma'muriy bo'linishiga ko'ra 16 ta viloyatdan iborat bo'lib, ularning har biri o'z konstitutsiyasi, parlamenti va hukumatiga ega, ya'ni har birining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud. Yuqori qonunchilik organi – Bundestag (Parlament) hisoblanadi. Viloyatlarning qiziqishlarini Bundesrat (yerlar hukumati organi) himoya qiladi. Regionlarda qonunchilik bilan landtaglar (yerlar parlamentlari) shug'ullanadi. Yerlar bundesratda teng hokimiyatga ega bo'lmasada, huquqiy jihatdan ularning statuslari teng.

Siyosiy hokimiyatda siyosiy partiyalarning o'rnini katta. Asosiy siyosiy partiyalar quyidagilar:

Sotsial demokratik partiya (1969) – 940.000 ta a'zo

Xristian demokratik ittifoqi (1945) – 900.000 ta a'zo

Xristian sotsial ittifoqi (1945) – 130.000 ta a'zo

Alyans 90/ Greens (1990) – 40.000 ta a'zo

Erkin demokratik partiya (1948)

So'llar partiyasi

Demokratik sotsializm partiyasi – 100.000 ta a'zo

Milliy demokratik partiya (1964) – 6000 ta a'zo

Respublika partiyasi (1983)

Germaniya parlament uyi



Federal va yer ma'muriyatlarini vazirlar boshqaradi. Germaniyada quyidagi Vazirliklar mavjud:

1. Federal Tashqi Ishlar Vazirligi
2. Federal Adliya Vazirligi
3. Federal Moliya Vazirligi
4. Federal Iqtisodiyot Vazirligi
5. Federal Iqtisodiyot Vazirligi(Berlindagi qabuli)
6. Federal oziq-ovqat sanoati va qishloq va o'rmon xo'jaligi Vazirligi
7. Federal mehnat va ijtimoiy munosabatlar Vazirligi
8. Federal Transport Vazirligi
9. Federal hududiy rejalashtirish, qurilish va ish bilan bandlik Vazirligi
10. Federal pochta va telekommunikatsiya Vazirligi
11. Federal tadqiqot va texnologiyalar Vazirligi
12. Federal iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Vazirligi
13. Federal atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadro xavfsizligi Vazirligi
14. Germaniya Federal hokimiyatining matbuot va informatsiya xizmati

(6)

Germaniya bojxona qonunchiligi

Germaniyaning bojxona xizmati 41 ming ta xodimni o'z ichiga olgan holda, Germaniya Federativ Respublikasi davlat apparatining asosiy tarkibiy tuzilmalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning raisi Xans Ioxim Shteyr (Hans Joachim Stahr) va uning o'rinbosari Dirk Xan.

Maqsad va vazifalari

Germaniya bojxona xizmatining maqsad va vazifalari chegaraviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi. Bojxona xizmati Germaniya hamda Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotlarini rivojlantirishga yordam beradi.



Germaniya boxona siyosati o'zining soliq va bojxona to'lovlarini samarali undirish tizimi evaziga davlat apparatining faoliyatini ta'minlaydi, fuqarolar va davlat qiziqishlarini himoya qiladi. Ushbu xizmat xalqaro uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar va kontrabanda tovarlar savdosi, noqonuniy moliyaviy oqimlar, shuningdek, flora va fauna himoyasi bo'yicha xalqaro kelishuvlarning buzilishiga qarshi faol tarzda kurash olib boradi. Ular tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) ishtirokchilarini qoniqtiradigan bojxona xizmatini takomillashtirib bormoqdalar.

Germaniya bojxona xizmati vazifasi bo'lib, bojxona bojlari, spirtli ichimliklar uchun soliq, boshqa qonun bilan belgilangan iste'molchilar soliqlari, shuningdek, olib kirilayotgan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i va Yevropa Ittifoqining boshqa soliqlarini undirish hisoblanadi. Bundan tashqari, bojxona xizmati tovarlarni chegaradan olib o'tishda cheklashlarni ham amalga oshiradi. Bojxonalar ma'muriy huquqbuzarlikka qarshi qabul qilingan qarorlarini bajarish kompetensiyasiga ega bo'lib, ular noqonuniy ishchi kuchi ishlatishga qarshi kurashadilar. Bojxona xodimlari qishloq xo'jaligi sektoridan Yevropa Ittifoqining

qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy bozorini nazorat qilish bo'yicha qonun hujjatlari va Yevropa Ittifoqining Bojxona Kodeksiga ko'ra soliqlar undiradi.

Germaniya bojxonasi huquqiy asoslari

Germaniya davlatlari o'z savdo aloqalarini nafaqat Yevropa Ittifoqi doirasida, balki undan tashqarida ham o'rnatishga intiladi. Hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish Germaniya uchun eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, hisoblanadi. Shunday bir holatda, belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun Germaniya tashqi iqtisodiy aloqalarini nazorat qiluvchi va uning ichki iqtisodiy qiziqishlarini himoya qiluvchi ishonchli me'yoriy huquqiy baza bo'lishi shart. Bu borada Germaniya Federativ Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilovchi quyidagi 2 guruh asosiy normativ aktlarni keltirish mumkin:

1) Yevropa Ittifoqi organlari tomonidan qabul qilingan me'yoriy huquqiy aktlar:

- Bojxona Kodeksi (Zollkodeks-ZK) 12.10.1992
- Bojxona Kodeksini ijrosi to'g'risidagi Qaror 2.07.1993
- Bojxonani tozalashni amalga oshirish to'g'risidagi Qaror 28.09.1983
- Yevropa Hamjamiyatining Yagona Bojxona tarifi

2) Germaniya davlat organlari tomonidan qabul qilingan me'yoriy huquqiy aktlar:

- Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi Qonun 28.04.1961 (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan 31.05.1987)
- Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonunni amalga oshirish to'g'risidagi Qaror 22.11.1993 (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan 16.12.2002)
- Bojxona boshqaruvi to'g'risidagi Qonun 21.12.1992
- Bojxona to'g'risidagi Qaror 12.10.1992. Ushbu qaror YeI Bojxona Kodeksi me'yorlarining qo'llanilish tartibini nazorat qiladi.

- Aylanma(oborot)dan soliq to'g'risidagi Qonun 26.11.1979 (oxirgi o'zgartirishlar 1.09.2002)
- Aylanma(oborot)dan soliq to'g'risidagi qonunning amalga oshirilishi to'g'risidagi Qaror 21.12.1979 (oxirgi o'zgartirishlar 20.12.2001) va hk.

Germaniya bojxona qoidalari

YeI fuqarolari Yevropa hududida harakat qilganda, hech qanday bojxona cheklavlari qo'llanilmaydi. YeI ga kirmaydigan davlatlar fuqarolari Germaniya hududiga tovar olib kirishda quyidagi cheklavlar mavjud:

a) Agar tovar boshqa YeI davlatida sotib olingan va soliqlar va bojlar to'langan bo'lsa, quyidagi tovarlarni bojsiz olib kirish mumkin:

- 800 ta sigaret yoki 200 ta sigara yoki 1 kg ta'maki mahsuloti;
- 10 l spirtli ichimlik (22%dan yuqori), 200 l o'tkir vino, 90 l oddiy vino, 110 l pivo
- boshqa tovarlar 400 yevrodan oshmagan miqdorda.

b) Agar tovarlar YeI hududidan tashqarida sotib olingan bo'lsa, quyidagi miqdorda tovarlarni bojsiz olib kirish mumkin:

- 200 ta sigaret yoki 50 ta sigara yoki 250 g ta'maki mahsuloti (17 yoshdan yuqori shaxslar uchun);
- 1 l spirtli ichimlik (22%dan yuqori) yoki 2 l spirtli ichimlik (22%dan kam) yoki 2 l o'tkir vino/likyor, 2 l oddiy vino(17 yoshdan yuqori shaxslar uchun);
- 500 g donali kofe yoki 200 g maydalangan kofe(15 yoshdan yuqori shaxslar uchun);
- 50 ml atir yoki 200 ml atir suvi;
- 100 g choy;
- Valyuta – 10.000 yevrodan ortiq summa deklaratsiyalanadi va uning kelib chiqishi va keyinchalik sarflanish yo'nalishlari haqida hujjat talab qilinadi;

- Boshqa tovarlar 430 yevrodan oshmagan miqdorda.

Giyohvand moddalar, zahar, psixotrop moddalar, qurol olib kirish ta'qiqlanadi. Yonilg'ini olib chiqib ketish ta'qiqlanadi. Avtomobil kanistrada yonilg'i 10 l dan oshmagan holda bo'lishi kerak.

Bojxona bojlari

Qiymati € 150 (shaxsiy import uchun € 430) dan oshgan import qilinayotgan tovarlarga QQS va import bojlariga qo'shimcha ravishda bojxona bojlari undiriladi:

Charm kiyim	4%
To'qimachilik kiyimlari	12%
Charm oyoq kiyim	8%
Boshqa materialdan oyoq kiyim	17%
Tillo va kumushdan qimmatbaho taqinchoqlar	2,5%
Boshqa qimmatbaho taqinchoqlar	4%
USB-palochkalari	0-14%
Kompyuter monitorlari	0-14%
Velosipedlar	14%
Sport anjomlari	2,7% - 4,7%
- M: Golfclubs	2,7%
- M: raketkalar	4,7%
Plastik narsalar	6,5%
Kitoblar, rasmlar, foto suratlar, plakatlar	0%
Kasseta, disk, video, DVD	3,5%
Transport vositalari:	
- yengil	10%
- Motosikllar	6-8%
Mebel	0-5,6%

Kosmetika	0-6,5%
DVD-Player	13,9%
MP3-Player	0-14%

(11)

Germaniyaga tovarlar eksporti va bojxona rejimlari

YeIga kirmaydigan barcha davlatlar tashqi iqtisodiy muomalada 3-darajali davlatlar deb yuritiladi. Germaniya hududiga (YeI hududiga) olib kirilayotgan tovarlar YeIga ishlab chiqarilmagan degan statusga ega bo'lib, olib kirish paytida tovarlar ma'lum bojxona jarayonlaridan o'tadi. Tovarlar YeI hududiga olib kirilgan paytdan boshlab, bojxona nazorati boshlanadi. Tovarni YeI hududiga olib kirayotgan shaxs (avtomobil haydovchisi, pilot, turist, hk) birinchi bojxonadayoq uni nazoratga topshirishi shart. Yetkazib beruvchi shaxs tovarni boshqa yetkazib beruvchi mas'ul shaxsga berib yuborish huquqiga ega (M: ekspeditor)

Germaniya hududida tadbirkorlik faoliyatini olib borish huquqiga ega bo'lgan, ma'lum hollarda savdo reyestriga kiritilgan har qanday shaxs YeI hududiga tovarni import qilish mumkin. Shuningdek, Gewerbeamt muassasasida tadbirkor sifatida ro'yhatdan hamda Germaniya hududida bo'lish huquqiga ega bo'lgan chet el fuqarolari ham YeI hududida tovar importini amalga oshirishi mumkin.

Vaqtincha saqlash, deklaratsiya taqdim etish muddatlari

Bojxonaga tovar olib kirilgandan so'ng, import qilayotgan shaxs, kerakli bojxona rejimini tanlaguniga qadar, yuk vaqtincha saqlashga qo'yiladi. Bunda "umumiy ariza" to'ldiriladi. Tovar 20 kungacha (dengiz orqali yuk tashishda 45 kun) davomida vaqtincha saqlash omborida saqlanishi mumkin. Arizadan tashqari mos ravishda tovar-transport, havo yuk hujjati va konosament taqdim qilinishi kerak. Tovar olib kiruvchi shaxs yuki bojxonaga yetib kelgan zahoti kerakli bojxona rejimiga joylashtirilsa, umumiy ariza taqdim qilish talab etilmaydi.

Bojxona rejimlari:

Germaniya Bojxona Kodeksida quyidagi bojxona rejimlari belgilangan:

- Tovarni erkin muomalaga chiqarish;
- Bojxona bojlari undirilmaydigan iqtisodiy ahamiyatga molik tovarlarni olib kirish rejimi;
- Tashqi yuk tashish;
- Ichki yuk tashish;
- Bojxona ombori;
- Aktiv qayta ishlash;
- Passiv qayta ishlash;
- Qayta ishlash;
- Vaqtincha foydalanish;
- Olib chiqish;
- Yaxshilash.

Tovarni erkin muomalaga chiqarish

Olib kiruvchi shaxs tovarlarini ushbu rejimga qo'yishi uchun barcha olib kirilayotgan tovarlar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ariza va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etishi, barcha olib kirish to'lovlarini to'lashi shart.

Yuqorida keltirilgan majburiyatlarni bajargandan so'ng, tovar olib kiruvchi shaxs tovarlarini erkin boshqarishi mumkin. Erkin muomalaga chiqarish 3-darajali davlat tovariga Yel tovari statusini beradi. Biroq, tovarlarning bu statusi uning ishlab chiqarilgan joyini o'zgartirmaydi, ya'ni O'zbekistondan Germaniyaga import qilingan tovar O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarligicha qoladi.

Bojxona ombori

Bojxona ombori rejimi tovarni aniqlashtirish tugamaganda yoki kerakli bojxona rejimi hali tanlanmaganda qo'llanilishi mumkin. Tovarlarni bojxona

omborlarida bojxona to'lovlari, iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan, cheklanmagan muddatda saqlanishi mumkin.

Aktiv qayta ishlash

Aktiv qayta ishlash shunday rejimki, bunda 3-darajali davlatlardan Yel hududiga tovarlar qayta ishlash uchun olib kiriladi va qayta olib chiqib ketiladi, Bu rejimga ruhsat olingan holda, tovardan hech qanday olish kirish bojlari undirilmaydi. Tovarlarini tashqariga qayta olib chiqib ketilishi bo'yicha dalillar bo'lishi lozim.

Passiv qayta ishlash

Passiv qayta ishlash shunday rejimki, bunda tovarlar ta'mirlash yoki qayta ishlash bo'yicha tarifli preferensiyalarni ko'zda tutuvchi kelishuv imzolangan 3-darajali davlatlarga olib chiqiladi va qayta Yel hududiga olib kiriladi. Bu rejim bojxona organining ruhsati bilan qo'llaniladi. Tayyor tovarlarni qaytib olib kirishda imtiyozli rejim qo'llanilishi mumkin.

Yaxshilash

Tovar 3-darajali davlatdan ba'zi nuqsonlar bilan keltirilgan holda, kelishilgan yoki qonunan belgilangan kafolat muddati mavjud bo'lsa, vakolatli bojxona organiga ushbu mahsulotni ta'mirlash uchun yaxshilash rejimida olib chiqib ketilishi bildiriladi. tovarni qayta olib kirishda bojxona to'lovlari undirilmaydi. Agar tovarlar chet elda to'lov asosida ta'mirlangan bo'lsa, olib kirishda bojxona to'lovlari undiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvida zarur bo'ladigan hujjatlar:

1) Bojxona deklaratsiyasi bojxona uchun ariza hisoblanib, o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra soliq deklaratsiyasiga mos keladi. Unda bojxona rasmiylashtiruvi va tovarlarni olib kirishda bojxona bojlarini undirish uchun kerakli ma'lumotlar keltirilgan. Importni amalga oshiruvchi shaxs deklaratsiyaga quyidagilarni kiritadi:

- ❖ Kerakli bojxona rejimi;
- ❖ Yagona Tovar nomenklaturasi raqami bilan aniq tovar tavsifi;
- ❖ Tovarning bojxona qiymati (yoki boshqa belgilar, m: vazn, miqdor)

Deklaratsiya “yagona hujjat” asosida rasmiylashtiriladi. “Yagona hujjat” yozma shaklda bojxona arizasi uchun YeI ning yagona rasmiy formulyaridir. Hujjat 8 betdan iborat bo’lib, tasdiqlangan bojxona tartibiga muvofiq rasmiylashtiriladi. Odatda, faqat yagona hujjat qismigina rasmiylashtiriladi. Olib kirish arizasida yagona hujjatning 6,7,8 – raqamli nusxalari to’ldiriladi. Belgilangan ariza 1000 yevrodan ortiq qiymatfagi tijorat tovarlari olib kirilganda to’ldiriladi. Ushbu summadan kamroq qiymatdagi tovarni olib kirishda o’g’zaki tarzda amalga oshiriladi.

2) Agar tovarning bojxona qiymati 10.000 yevrodan oshib ketsa, olib kiruvchi shaxs tomonidan bojxona deklaratsiyasiga qo’shimcha ravishda tovarning bojxona qiymati to’g’risida ariza keltiriladi.

3) Bojxona deklaratsiyasidan tashqari, quyidagi hujjatlar zarur:

- ◆ Savdo hisobvaraqlari – chet eldagi mol yetkazib beruvchi tomonidan beriladi va uning asl nusxasi bojxona qiymatini hisoblashda zarur;
- ◆ Tashqi savdo shartnomasi;
- ◆ Transport harajatlari uchun transport-yuk hujjati;
- ◆ Olib kirish uchun ruhsatnoma, litsenziya;
- ◆ Sifat sertifikat;
- ◆ Tovarni kelib chiqishi haqida sertifikatlar;
- ◆ Olib kirilayotgan tovarlar nazorati hujjatlari;
- ◆ Yuk xati va hk.

Ta’qiqlar va cheklovlar

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar bilan bir qatorda, iqtisodiy bo’lmagan cheklovlar ham mavjud, ular Germaniya va YeI hududiga tovar olib kirishni cheklaydi yoki ta’qiqlaydi. Bunday cheklovlar YeI hamda Germaniyaning milliy normalariga asoslanadi. Ijtimoiy muhofaza (qurol-yarog’, harbiy texnika va

uskuna, o'q dori va hk.larni olib kirish), ekologiya muhofazasi (aerosol vositalarini olib kirish), insonlar va hayvonlar muhofazasi (kimyoviy purkovchi moddalar, oziq-ovqat mahsulotlari, o'simlik va hayvonlarning ma'lum bir turlarini olib kirish), shuningdek, intellektual mulk himoyasi bo'yicha cheklovlar mavjud.

Germaniya va Xalqaro tashkilotlar

Germaniya quyidagi xalqaro tashkilotlarga a'zo:

- G 8- yirik sakkizlik
- WTO- Jahon Savdo Tashkiloti
- YeI- Yevropa Ittifoqi
- XVF- Xalqaro Valyuta Fondi
- NATO
- OSCE- Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti
- BMT- Birlashgan Millatlar Tashkiloti
- YeS- Yevropa Soveti
- Shengen hududi

G8 yirik sakkizlik (1975 y.) – norasmiy tashkilot bo'lib, unga Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya, Kanada davlatlari kiradi. 70-yillardagi iqtisodiy inqiroz davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashgani sababli, erg yirik sanoatlashgan davlat rahbarlari o'rtasida uchrashuvlar o'tkazish g'oyasi vujudga keldi. Ilk uchrashuv 1975 yilning 15-17 noyabr kunlari bo'lib o'tgan.



Jahon Savdo tashkiloti (WTO) – global tashkilot bo'lib, 1995 yilda tashkil topgan. Jahon Savdo tashkilotining faoliyati savdo qoidalarini ishlab chiqish va a'zo davlatlar o'rtasida tadbiq qilishdan iborat.

Jahon Savdo tashkilotining boshlig'i – Paskal Lami, shtab kvartirasi Jenevada joylashgan. Germaniya Jahon Savdo tashkilotiga 1995 yil 1 yanvarda a'zo

bo'lgan. 2008 yil 23 iyul holatiga Jahon Savdo tashkilotga 153 ta a'zo davlatlar mavjud. (15)

Yevropa Ittifoqi (YeI) – regional tashkilot bo'lib, 1967 yil 3 ta tashkilotning birlashuvi natijasida to'liq tashkil topdi. Yevrokomissiya – yuqori ijro etuvchi hokimiyat hisoblanadi, u qonun chiqarish vakolatiga ham ega. 1957 yil 25 martda G'arbiy Germaniya Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo bo'ldi. 1990 yil 3 oktyabrda Germaniyaning birlashuvi yuz bergan. Germaniya YeI ning yirik donori bo'lib, YeI byudjetida uning ulushi 20 % ni tashkil etadi. Hozirda 27 ta davlat YeI ga a'zo.



Shimoliy atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) – regional tashkilot bo'lib, uning faoliyati xavfsizlikni ta'minlashdab iborat. 1949 yil 4 aprel kuni imzolangan shimoliy atlantik shartnomaga asosan Vashingtonda 12 ta davlat tomonidan harbiy-siyosiy uyushma tashkil topgan. Germaniya ushbu tashkilotga 1955 yilda a'zo bo'ldi. 2004 yil holatiga 26 ta a'zo davlatlar mavjud.

Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (OSCE) – regional tashkilot hisoblanadi. OSCE shtab kvartirasi Vena(Avstriya)da, uning vakolatxonalari Kopengagen, Jeneva, Gaaga, Praga va Varshavada joylashgan.

Faoliyat sohasi:

- Qurol yaroq tarqalishini ustidan nazorat o'rnatish ;
- Nizolarni bartaraf etish bo'yicha diplomatik harakatlar;
- Ishonchli munosabatlar va xavfsizlikni o'rnatish choralari;
- Inson huquqlarini himoya qilish;
- Demokratik institutlarni rivojlantirish;
- Saylovlar monitoringi;
- Iqtisodiy va ekologik xavfsizlik.





Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – global tashkilot bo'lib, uning faoliyat sohalari: ekologiya, iqtisodiyot, statistika, xavfsizlik, oila, ta'lim, aholishunoslik, jinoyatchilik, sog'liqni saqlash, nogironlar, ilm-fan, qarilar va kommunikatsiya sohalaridan iborat.

1945 yil 26 iyun kuni San Fransiskodagi konferensiyada 50ta davlat vakillari tomonidan BMT ning Nizomi imzolangan. Ushbu Nizom 1945 yil 24 oktyabrda kuchga kirgan. Bu sana har yil tashkilotning tashkil topgan sanasi sifatida nishonlanadi. Hozirda BMTga 192 ta davlat a'zo.

1973 yildan boshlab Germaniya BMT ning to'la huquqli a'zosidir. Tashkilot byudjetining 9 % i Germaniyaga to'g'ri keladi. 1996 yildan buyon Bonn shahri "BMT shahri" deb yuritiladi, u yerda BMTning 16 ta tashkiloti joylashgan.



Yevropa Soveti (YeS) – regional tashkilot bo'lib, rasman 1949 yil 5 may kuni tashkil topgan. Shtab kvartirasi Strasburgda bo'lgan Yevropa Sovetini tashkil qilish to'g'risidagi London kelishuvi 10ta davlat tomonidan imzolangan. Tashkilotning faoliyat doirasi ozodlik, demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi prinsiplariga asoslangan yagona Yevropani shakllantirishga yo'naltirilgan. 46 ga yaqin a'zo davlatlar mavjud.


Xalqaro maydonda Berlindagi Federal tashqi ishlar vazirligi va uning 228 ta diplomatic vakolatxonalari faoliyat yuritadi. Hozirgi kunda Germaniya Federativ Respublikasi 191 ta davlat bilan diplomati aloqalar olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi va Germaniyaning tashqi iqtisodiy aloqalari

O'zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O'zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar ikki

tomonlama va 1999 yilning 1 iyulidan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a'zo davlatlar bilan Sherikchilik va hamkorlik kelishuvi doirasida rivojlanib bormoqda. Hamkorlikning salmoqli shartnoma-xuquq bazasi tashkil etilgan (112 ta ikki tomonlama xujjatlar imzolangan).

Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2008y. yakunlariga ko'ra, o'zbek-german tovar aylanmasi hajmi 470 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.



O'zbekistonda 100 dan ortiq nemis sarmoyadorlari ishtirokidagi, shu jumladan 100 foiz german kapitali hisobiga ishlayotgan korxonalar faoliyat ko'rsatishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo investitsiyalar vazirligida 50 dan ortiq Germaniya kompaniyalari vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan. Moliyaviy va texnik hamkorlikning hozirgacha bo'lgan hajmi 270 mln. yevrodan ortgan.

Jumladan, ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlikni jadallashtirish borasida bugungi kunda Yevropaning 16 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama muloqoti faol xarakterga ega bo'lib, u 5 asosiy qo'shma organ doirasida amalga oshirilmoqda: Hamkorlik kengashi, Hamkorlik qo'mitasi, Parlament hamkorligi qo'mitasi, Savdo va investitsiyalar bo'yicha quyi qo'mita hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo'yicha quyi qo'mita.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://en.wikipedia.org/wiki/Germany>
2. <http://www.export.by/?act=news&mode=view&id=16097>
3. http://www.economywatch.com/world_economy/germany/export-import.html
4. http://www.de-web.ru/article/read/Gosudarstvennyj_stroj_i_politicheskie_partii_Germanii.html
5. <http://germany.visahq.com/customs/>
6. http://www.country.alltravels.com.ua/ru/germany/info/Customs_Germany/
7. <http://www.toytowngermany.com/lofi/index.php/t117570.html>
8. <http://www.auswaertiges-amt.de/>
9. <http://europa.eu/>
10. <http://www.nato.int/>
11. <http://www.osce.org/>
12. <http://www.coe.int/>
13. <http://www.geopolitics.ru/states/germany.htm>
14. http://www.tatsachen-ueber-deutschland.de/ru/content-home/facts-and-figures/germany-in-the-world.html?type=1000&no_cache=1
15. http://www.taschkent.diplo.de/Vertretung/taschkent/ru/03/Bilaterale_Beziehungen/Deutschlandund_Usbekistan_Seite.html
16. http://www.economywatch.com/world_economy/germany/industry-sector-industries.html
17. http://www.theodora.com/wfbcurrent/germany/germany_economy.html

9. Tavsiya etilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2003 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. T.: Norma, 2010 y.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. T.: Adolat, 2009 y.
4. «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: Norma, 2009 y.
5. «Bojxona xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: Norma, 2009 y.
6. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, T.: Norma, 2002 y.
7. «CHet ellik investorlar huquqlarini kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: Norma, 2009 y.
8. «Himoya choralari, dempingga qarshi va kompensatsion bojlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni T.: O'zbekiston 2004 y.
9. «Eksport nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: O'zbekiston, 2004 yil.
10. «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi 2003 yil.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda PQ-1449-son qaroriga 12-2-ilova. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan aktsizli tovarlarga aktsiz solig'i stavkalari.
12. «O'zbekiston Respublikasi byudjetining 2011 yildagi asosiy makroiqtisodiy

ko'rsatkichlari va parametrlarini prognozlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdaqi PQ-1449 son qarori.

13. «Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 5 avgustdaqi PQ-1169 son qarori.

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridaqi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4057-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturini kuchga kiritish to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1046-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidaqi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 28 yanvar, PQ-1050-son.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha

puدرات ishlarini kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 29 yanvar, PQ-1051-son.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida. 2010 yil 27 yanvar, PQ-1271-son.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida. 2009 yil 13 fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

26. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yil yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

27. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

28. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17

yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.

29. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

30. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.

31. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.

Adabiyotlar

32. Kucharov A.S., Toirov SH.A., Boev O.H.«Davlatning boj tarif siyosati» fanidan darslik – T.: TDIU, 2007. 176 bet.

33.Nazarenko V.N., Nazarenko K.S. «Tamojennoe obslujivanie VED». M., Ekzamen 2001g.

34. Komilov U.T. «Bojxona ishi asoslari» T. «Iktisodiyot va xukuk dunyosi» 1999 yil.

35. Draganov V,G. «Osnov tamojennogo delo» Moskva «Ekonomika» 1999 god.

36. SHoraxmedov SH.umumiy taxriri ostida «Bojxona inspektorining yon daftari» Toshkent. Solik va bojxona organlari akademiyassi 2001 yil.

37. SHoraxmedov SH.ning umumiy taxriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Solik va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y.

38. Kontrabanda jinoyati va unga karshi kurash masalalari, ukuv-metodik kullanma, Davlat Bojxona kumitasi ukuv markazi, T., 2000 y.

39. Yershov A. D. Mejdunarodnye tamojennye otnosheniya: Ucheb.pos. IVESEP, 2000.

40. Nazarenko V. M., Nazarenko K.S. Tamojennoe obslujivanie vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti - M.: Ekzamen, 2001.
41. Pod red. Skvortsova K.F., «Rassledovanie kontrabandi», M., Yurist, 1999 g.
42. Inshakov S.M. «Kriminologiya», uchebnik, M., Yurisprudentsiya, 2000 g.
43. Popov X.A., Popova L.X. Osobennosti gosudarstvennogo regulirovaniya vneshnetorgovoy deyatel'nosti v sovremennykh usloviyax. Moskva 2002 g.
44. Xudoyberdieva V.J. «Bojxona xukuklari asoslari» Toshkent «Iktisodiyot va xukuk dunyosi» 1998 yil.
45. Xalipov S. V. Tamojennoe pravo : uchebnik dlya vuzov / S. V. Xalipov . - M. : Zertsalo-M , 2004
46. Shmittgoff K. «Eksport mejdunarodnoy trgovli» Moskva «Yuridicheskaya literatura» 1999 god.

Internet saytlari

47. www.press-service.uz
48. www.parliament.gov.uz
49. www.gov.uz
50. www.mfa.uz
51. www.minjust.uz
52. www.cbu.uz
53. www.soliq.uz
54. www.uzreport.com
55. www.customs.uz

MUNDARIJA

1.	Kirish	4
2.	Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari	8
3.	Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari	11
4.	Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar	11
5.	Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi	12
6.	«Bojxona ishi» fanini o'qitish uchun 5340200 Menejment oliy ta'lim yo'nalishiga ajratilgan soatlarning o'quv turlari va mavzulari bo'yicha taqsimlanishi	13
7.	«Bojxona ishi» fanini o'qitish uchun 5340100 Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishiga ajratilgan soatlarning o'quv turlari va mavzulari bo'yicha taqsimlanishi	14
8.	Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi	15
9.	Talabalar bilimini baholash turlarini o'tkazish jadvali	19
10.	Tavsiya etilgan adabiyotlar	45
11.	Mundarija	51

©i.f.n., dots.Kurpayanidi K.I., ass.Ilyosov A. «Bojxona ishi» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha uslubiy qo'llanma. – F.: FarPI, 2011. 52 bet.